QASHQADARYO VILOYATI
G‘UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2021 - yil 19 - oktabr 268-4-56-Q/21 G‘uzor tuman hokimligi

G‘uzor tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan G‘uzor tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. G‘uzor tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. G‘uzor tuman Ichki ishlar bo‘limi (Z.Tursunov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (X.Xayrullaev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O‘.G‘ofurovga) tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va

transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “G‘uzor hayoti” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining Guzor.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Zokirov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Б.Суюнов**

Ғузор туман ҳокимининг
2021 йил 19 октябрдаги
268-4-56-Q/21-сон қарорига
1-илова

G'uzor tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzillari

RO'YXATI

№	Yo'l belgisi o'rnatilgan manzil nomi yo'l belgisini nomi	Yo'l belgisining nomi
1.	A-380 G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu avtomobil yo'lining 2-kilometr G'uzor tumani Chorvadorlar ko'chasida joylashgan Karvon savdo bozori oldida va ro'parasida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
2.	G'uzor tumani ichki xo'jalik yo'li Gulshan ko'chasida joylashgan G'uzor Dehqon Oziq-Ovqat bozori oldida va ro'parasida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
3.	G'uzor tumani ichki xo'jalik yo'li Gulshan ko'chasida joylashgan Qo'rg'on, Oydin va Parda bobo choyxonalari oldida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
4.	G'uzor tumani ichki xo'jalik yo'li Gulshan ko'chasida joylashgan G'uzor gaz ta'minoti boshqarmasi oldida va ro'parasida joylashgan savdo markazlari oldida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
5.	4M 292 E M-39 avtomobil yo'li va A380 avtomobil yo'llari bilan bog'lovchi yo'lning 3-4-kelometrlar oralig'i O'zbekiston ko'chasida joylashgan Shodlik savdo markazi oldida va ro'parasida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
6.	4.M 292 Y M-39 avtomobil yo'li va A380 avtomobil yo'llari bilan bog'lovchi yo'lning 3-4-kelometrlar oralig'i O'zbekiston ko'chasi Samsung savdo markazi oldida va ro'parasida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
7.	4M 292 Y M-39 avtomobil yo'li va A380 avtomobil yo'llari bilan bog'lovchi yo'lning 3-4-kelometrlar oralig'i O'zbekiston ko'chasida joylashgan Mirjaxon Mebellar savda markazi oldida va ro'parasida	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
8.	4K-349 G'uzor aylanma yo'li 2-3-kelometrlar oralig'i Mustaqillik ko'chasida joylashgan SHo'rtan markaziy o'yingohi ro'parasida.	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”